Mağrur hilpirayver, vatan bayroği!

18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Mağrur hilpirayver, Vatan bayroği!” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirni Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor Sayfullo Ikramov kirish so‘zi bilan ochib berdi. U o‘z nutqida Davlat bayrog‘ining xalqimiz hayotidagi beqiyos o‘rni, milliy o‘zligimiz, mustaqilligimiz, g‘urur va iftixorimizning yorqin timsoli sifatidagi ahamiyatiga alohida to‘xtaldi. Shuningdek, davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni ardoqlash va yosh avlod qalbida Vatanga daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlash muhimligini ta’kidladi.

Tadbirning ilmiy-ma’rifiy qismida Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha Jamoatchilik kengashi raisi, tarix fanlari doktori, professor Abduxalil Mavrulov ma’ruza bilan ishtirok etdi. Ma’ruzada O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining yaratilish tarixi, undagi ranglar va ramzlarning mazmun-mohiyati, ular ifoda etadigan ezgu g‘oyalar hamda milliy qadriyatlarimiz haqida atroflicha so‘z yuritildi. Ayniqsa, davlat ramzlarining yosh avlodda milliy g‘urur, tarixiy xotira, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati alohida qayd etildi.

Shundan so‘ng tadbir institut professor-o‘qituvchilari, taniqli san’atkorlar hamda iqtidorli talabalar ishtirokida tayyorlangan badiiy dastur bilan davom etdi. Dasturdan Vatan, istiqlol, milliy g‘urur va yurtga muhabbatni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar, she’riy chiqishlar hamda badiiy kompozitsiyalar o‘rin oldi.

Tadbir davomida institut professor-o‘qituvchilari va talabalari qalbida Davlat bayrog‘iga bo‘lgan chuqur hurmat, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ulari yana bir bor namoyon bo‘ldi. Ishtirokchilarga bayrog‘imizdagi rang va belgilar xalqimizning tarixiy ildizlari, ezgu orzu-intilishlari, do‘stlik, tinchlik va taraqqiyotga bo‘lgan intilishini ifodalashi haqida ham so‘z yuritildi.

Mazmunan boy ma’ruza va ko‘tarinki ruhdagi badiiy chiqishlar bilan yodda qolgan tadbir ishtirokchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy qadriyatlarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat va davlat ramzlariga yuksak ehtirom tuyg‘ularini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Zero, Davlat bayrog‘i – xalqimizning sha’ni va g‘ururi, mustaqilligimiz hamda buyuk kelajakka bo‘lgan ishonchimizning yorqin ifodasidir!








18-NOYABR

















Turkiy dunyo san’at universitetlari örtasidagi hamkorlik

2026-yil 16-noyabr kuni Turkiya Respublikasining Anqara şahrida Turkiy dunyo san’at universitetlari ittifoqining VI yiğilişi bölib ötdi.

Nufuzli xalqaro tadbirda turkiy davlatlarning san’at va madaniyat yönalişidagi oliy ta’lim muassasalari rektorlari hamda soha vakillari, şuningdek, Turkiya Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy hamda TURKSOY xalqaro taşkiloti Boş kotibi Sulton Raev iştirok etdi.

Yiğilişda Özbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.v.b. Sobir Madiyev ham qatnaşib, «Turkiy dunyo

san’at universitetlari örtasidagi hamkorlik: erişilgan natijalar va istiqboldagi vazifalar» mavzusida ma’ruza qildi.

Bunda institutning ittifoq doirasidagi hamkorlik tajribasi, xususan, Turk dunyosi talabalar teatr festivali, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va ijodiy loyihalardagi iştiroki haqida söz yuritildi. Şuningdek, hamkorlikni yangi bosqiçga olib çiqiş maqsadida qöşma konsert dasturlarini taşkil etiş, ilmiy jurnallar örtasida hamkorlikni rivojlantiriş, professor-öqituvçilar va tadqiqotçilarning ilmiy maqolalarini özaro naşr etiş hamda muntazam mahorat darslarini yölga qöyiş böyiça qator takliflar ilgari surildi.

Şu bilan birga, turkiy davlatlar san’at oliy ta’lim muassasalari örtasidagi hamkorlik nafaqat tajriba almaşiş, balki birgalikda yangi ilmiy va ijodiy mahsulotlar yaratiş, muştarak madaniy qadriyatlarni asrab-avaylaş hamda yoş iste’dodlarni qöllab-quvvatlaş uçun muhim imkoniyat ekanini ta’kidladi.

Tadbir davomida Turkiya Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy yiğiliş iştirokçilariga, jumladan, unda qatnaşgan rektorlarga minnatdorlik bildirib, bunday uçraşuvlar turkiy dunyoning madaniy yuksalişi, özaro aloqalarning mustahkamlanişi va umumiy taraqqiyotiga xizmat qilişini qayd etdi.

Mazkur yiğiliş turkiy davlatlar san’at va madaniyat oliy ta’lim muassasalari örtasidagi aloqalarni mustahkamlaş, yangi hamkorlik yönalişlarini belgilaş hamda xalqaro ta’lim va ijodiy integratsiyani rivojlantiriş yölidagi muhim qadam böldi.


REKTÖRLÜK

















Qolqanatov Asilbek Nazarbay öğlining san’atşunoslik fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) dissertatsiya işi himoyasi töğrisida

“Özbekiston Respublikasida madaniyat markazlari boşqaruvini takomillaştiriş masalalari” mavzusida

Qolqanatov Asilbek Nazarbay öğlining 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatşunoslik ixtisosligi böyiça “Özbekiston Respublikasida madaniyat markazlari boşqaruvini takomillaştiriş masalalari” mavzusidagi san’atşunoslik fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oliş uçun yozilgan dissertatsiya işi himoyasi Özbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvçi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengaş asosidagi bir martalik Ilmiy kengaşning 2026-yil 1-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bölib ötadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi, 127 A-uy. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti.

Tel.: (+99871) 230-28-02

e-mail: uzdsimi@madaniyat.uz

ÖzDSMI va Krasnodar davlat madaniyat instituti örtasida hamkorlik aloqalari kengaymoqda

2026-yil 11–14-noyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Krasnodar şahrida Şanxay hamkorlik taşkilotiga (ŞHT) a’zo davlatlar milliy musiqasiga bağişlangan I xalqaro «Ohanglar marjoni» talabalar festivali bölib ötmoqda.

Mazkur xalqaro festival doirasida Özbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda Krasnodar davlat madaniyat instituti örtasida hamkorlik töğrisidagi şartnomani imzolaş masalasi ham közda tutilgan.

Uşbu taşabbus ikki oliy ta’lim muassasasi örtasida ta’lim, ilm-fan va madaniyat yönalişlaridagi aloqalarni rivojlantiriş, özaro tajriba almaşiş hamda istiqbolli qöşma loyihalarni amalga oşiriş uçun yangi imkoniyatlar yaratişga qaratilgan.

Şu munosabat bilan Özbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Yoşlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy işlar böyiça birinçi prorektori Sayfulla Ikramov xalqaro festivalda iştirok etiş, şuningdek, hamkorlik şartnomasini imzolaş bilan boğliq

masalalarni muhokama qiliş maqsadida Krasnodar davlat madaniyat institutiga bölib turibdi.

Mazkur taşrif va rejalaştirilgan hamkorlik şartnomasi institutning xalqaro aloqalarini mustahkamlaş, milliy san’atimiz va madaniyatimizni xalqaro miqyosda keng tarğib etiş hamda ikki tomonlama akademik va ijodiy hamkorlikni yangi bosqiçga olib çiqişda muhim qadam bölişi kutilmoqda.



















“Yoş kitobxonlar” tanlovi ötkazildi

Özbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Döstlik” festivali doirasida “BIZ YANGI ÖZBEKISTON FARZANDIMIZ!” şiori

ostida “Yoş kitobxonlar” tanlovi ötkazildi.

Tanlovni institut rektori v.v.b. Sobir Madiyev ochib berdi hamda yoşlar ma’naviyatini yuksaltiriş, ularning intellektual salohiyatini oşirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantiriş hamda badiiy adabiyotning inson dunyoqaraşi va tafakkurini şakllantirishdagi örniga alohida töxtaldi. Şuningdek, talabalarni muntazam mutolaaga, kitob orqali öz bilim va dunyoqaraşlarini boyitib borişga çaqirdi.

Tanlovda iştirokçilar tavsiya etilgan 10 ta badiiy asar yuzasidan öz bilimlarini sinovdan ötkazdilar. Ular asarlarning mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakteri, muhim voqealar, şuningdek, mualliflarning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid savollarga javob berdilar.

Jarayon davomida talabalar mutolaa borasidagi bilimlari, mustaqil fikrlaş, tezkor javob qaytariş va adabiy tahlil qiliş könikmalarini namoyiş etdilar.

Tanlov yakunlariga köra, quyidagi iştirokçilar ğolib deb topildi:

- 1-örin – Öğiloy Yöldoşeva
- 2-örin – Husnida Holmaxmatova
- 3-örin – Madina Uzoqova

Tanlov ğoliblari diplom va esdalik sovğalari, qolgan iştirokçilar esa «Taşakkurnomalar» bilan taqdirlandi.

Ğoliblarni samimiy muborakbod etamiz! Ularga kelgusi öqişlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Mazkur tanlov yoşlar örtasida kitobxonlik muhitini yanada mustahkamlaş, mutolaaga qiziqişni oşiriş hamda faol va bilimdon kitobxonlarni aniqlaş maqsadida taşkil etildi.


"YOŞ K
T


"YOŞ KITOBXONLAR"
TANLOVI


IKKI ESHIK
ORASI






TANLOV




5
5
3
4








“YOŞ KITOB
AR”
TAN

ÖzDSMI Belarus bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirmoqda

Özbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Ilmiy işlar va innovatsiyalar böyiça prorektori Baxtiyor Yakubov Belarus davlat madaniyat va san’at universitetiga taşrif buyurdi.

Taşrif doirasida universitet rektori Natalya Karçevskaya, ilmiy işlar böyiça prorektori Yelena Korsakova hamda xalqaro aloqalar bölimi boşliği Vadim Samatiya bilan uçraşuv bölib ötdi.

Uçraşuvda ikki oliy ta’lim muassasasi örtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantiriş, ilmiy va ijodiy loyihalarni amalga oşiriş, talabalar hamda professor-öqituvçilar uçun yangi imkoniyatlar yaratiş masalalari muhokama qilindi. Şuningdek, tomonlar örtasida hamkorlik şartnomasi imzolandi. Mazkur kelişuv doirasida qöşma ilmiy konferensiyalar, talabalar teatr festivallari, yoşlar taşabbuslari va madaniyatlararo loyihalarni amalga oşiriş rejalaştirilgan.

Taşrif davomida Baxtiyor Yakubov universitet muzey ekspozitsiyasi bilan tanişdi, Xoreografiya kafedrasida taşkil etilgan amaliy maşğulotni kuzatdi hamda universitetning köp funksiyali sport-madaniyat markazi imkoniyatlari bilan yaqindan tanişdi.

Mazkur hamkorlik Özbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda Belarus davlat madaniyat va san’at universiteti örtasida ta’lim, ilm-fan va ijodiy yönalişlardagi aloqalarni yanada mustahkamlaşga xizmat qiladi.



















Majitov Shuxrat Murtazoyevichning pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi to‘g‘risida

“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning musiqiy bilimlarini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” mavzusida

Majitov Shuxrat Murtazoyevichning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta’limi) ixtisosligi bo‘yicha “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning musiqiy bilimlarini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil

17-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi, 127 “A”-uy, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “A” binosi, 2-qavat, majlislar zali.

Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15

e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz

21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni muborak bo‘lsin!

21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Ona tilim — faxrim, g‘ururim” nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirni institut rektori v. v. b. Sobir Madiyev kirish so‘zi bilan ochib berdi. U o‘z nutqida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi xalqimizning milliy o‘zligini anglash, tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlarini e’zozlash yo‘lidagi muhim tarixiy qadam bo‘lganini ta’kidladi. Shuningdek, ona tilini asrab-avaylash, uning boy imkoniyatlari va betakror jozibasini kelajak avlodga yetkazish har birimizning muqaddas burchimiz ekanini qayd etdi.

Ayniqsa, san’at va madaniyat sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar zimmasiga ona tilimizning sofligi, go‘zalligi va ta’sirchanligini ijod orqali namoyon etishdek muhim vazifa yuklanishini ta’kidladi. Zero, teatr sahnasida yangragan badiiy so‘z, kuy-qo‘shiqlarda mujassam bo‘lgan milliy ruh va adabiy merosimizning sahnaviy talqini tilimizning ma’naviy

qudratini namoyon etuvchi muhim vositalardir.

Tadbirda “Shuhrat” medali va “Do‘stlik” ordeni sohibasi, falsafa fanlari doktori, professor Sayyora To‘ychiyeva ham so‘zga chiqib, ona tilimizning millat ma’naviyati va madaniy taraqqiyotidagi o‘rni, uni qadrlash va rivojlantirishning ahamiyati haqida fikr-mulohazalarini bildirdi hamda o’z ijodidan namunalar o’qib berdi.

Shundan so‘ng bayram dasturi institut professor-o‘qituvchilari hamda talabalari ishtirokidagi badiiy chiqishlar bilan davom etdi. Dastur davomida milliy adabiyotimiz, mumtoz she’riyatimiz va musiqiy merosimizning eng sara namunalari tomoshabinlar e’tiboriga havola etildi.

O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi, professor Orolmirzo Safarov ijrosidagi Alisher Navoiy g‘azaliga bastalangan “Zebo emas” qo‘shig‘i, “Nihol” mukofoti sovrindori Isroil Saidumarov tomonidan ijro etilgan “Ag‘yor ila” va “Yuzlaring” qo‘shiqlari badiiy dasturning yorqin lahzalaridan bo‘ldi. Shuningdek, talabalar tomonidan Alisher Navoiy g‘azallari mahorat bilan o‘qilib, mumtoz adabiyotimizning yuksak badiiyati va so‘z san’atining betakror jozibasi namoyon etildi.

Dasturdan o‘rin olgan “Vals” musiqiy asari, qoraqalpoq xalq qo‘shig‘i “Janonim”, “Ona tilim” qo‘shiqlari, “Surxoncha raqs”, hikmatli so‘zlar hamda Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasidan Navoiy monologi tomoshabinlarga o‘zgacha taassurot bag‘ishladi. Shuningdek, “Muallim haqida rivoyat” sahna ko‘rinishi va “So‘z demay” musiqiy ijrosi orqali badiiy so‘zning tarbiyaviy ahamiyati, ustozga hurmat va milliy qadriyatlarga ehtirom g‘oyalari ifoda etildi.

Institutning professor-o‘qituvchilari va talabalari tomonidan namoyish etilgan chiqishlar ona tilimizning nafaqat muloqot vositasi, balki milliy tafakkur, san’at va ma’naviyatning qudratli ifodasi ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Tadbir davomida ona tilimizga muhabbat, milliy merosimizga

hurmat va san’at orqali ma’naviy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazish g‘oyalari o‘z ifodasini topdi.

Ona tilimiz – milliy o‘zligimiz va g‘ururimiz timsoli. Uni ardoqlash, nufuzini yuksaltirish barchamizning sharafli vazifamizdir.





















